

QORAQALPOG`ISTON SHAROITIDA PIYOZNI KO`CHATI VA YANGI USULDA YETISHTIRISH AFZALLIGI VA HOSILDORLIGI

D.Hayitboyev¹ Yuldashev Suxrobjon²

*¹Qorqalpog`iston qishloq xo`jaligi va
agrotexnologiyalar instituti assistenti,*

*²Qorqalpog`iston qishloq xo`jaligi va
agrotexnologiyalar instituti 3-kurs talabasi*

***Annotatsiya;** Piyozni ekish usullari va ularning afzaliklari hamda ularni yangi usularda hosildorligini ko`paytirish usullari. Urug` sarfi va ularni ko`chati orqali ekish samaradorliglari.*

***Kalit so`zlar.** Piyozni ekish usular, ekish muddatlari, ulardan samarali foydalanish, oziq-ovqat xafsizliklarni taminlash hamda tuproq sutrukturasini yaxshilash.*

O`zbekistonda hozirgi kunda ko`chat qilib ekiladigan sabzavotlar ochiq yerda 60 foizni, himoyalangan yerda esa 90 foizni tashkil etadi. Respublikamizda dehqon, fermer va tomorqa yer xo`jaliklari dalalarining yarmiga va himoyalangan yerlarga to`liq ko`chat usulida sabzavot ekinlari o`tqaziladi. Hozirda ko`chat usuli bir qancha afzalliklarga ega. Birinchidan: Ko`chat rivojlanishda dala o`simligidan 30-40 kun o`zib ketadi, bu esa erta hosil yetishtirish imkonini beradi. Ikkinchidan: Ko`chat evaziga issiqsevar sabzavot va ekinlarini(pomidor,tarvuz, qovun) mo`tadil iqlim sharoitida o`sishi mumkin.Uchunchidan: kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishni ko`chat usulida oson tashkil etish mumkin.To`rtinchidan:Urug`(3-7 barobar bevosita dalaga ekishga nisbatan) tejaydi va yagonlash,qatqaloq,begona o`tlar qarshi kurashishga hojat qolmaydi. Albatta bu usul ayni vaqtda ko`pchilik asosiy sabzavotlarda bu usul ommalashib ulgurdi. Qoraqalpog`iston respublikasi sharoitida ham bu usuldan keng foydalanib qishloq xo`jaligi ekinlaridan yuqori hosil olinib kelinmoqda. Lekin bu usuldan piyoz yetishtirish bo`yicha katta

natijalarga erishilgan emas albatta buning sababi hanuz bu ekinda ushbu usul bo'yicha ilmiy ish olib borilmaganligidir.

Albatta biz tadqiqot ishlarimizda piyozning ko'chatlab yetishtirish usulini asosiy vazifalarimizning biri qilib oldik.

Yana shuni qo'shimcha qilishimiz kerakki; O'zbekistonda piyoz asosan uch muddatda ekiladi: bular erta bahorda – fevral oyining oxiri martning boshlarida; yoz-kuz fasllarida esa avgust – sentyabr oylarida va qish fasli oldidan – noyabr oyining oxiri dekabrning boshlarida ekiladi. Erta bahor faslida esa ekilgan piyoz yoz-kuz va qish fasli oldidan ekilgandan piyozga qaraganda qish faslining noqulay sharoitida yaxshi va sifatli saqlanadi.

Shuning uchun erta bahor faslida ekilgan piyozni qish faslida saqlaganda boshqalariga nisbatan samaraliroq bo'ladi.

Lekin bizning murakkab tuproq iqlim sharoitida piyozni erta bahorda ekilsa piyozning unib chiqish vaqti uzayib ketadi natijada piyoz ekilgan dalada begona o'tlar bosib ketadi. Bu esa piyoz ko'chatining soni kam bo'ladi bu esa hosilning kamayishiga sabob bo'ladi. Qoraqolpogiston sharoitida erta piyozdan erta hosil olish uchun ko'chatlari orqali ekkan maqul chunki yuqoridagi salbiy oqibatlariga olib kelmasliging oldini oladi.

Ko'chat qilib piyoz yetishtirish; Piyozning kechpishar navlari, bazan ko'chatdan yetishtiriladi. Buning uchun piyoz urug'i ko'chat qilishdan bir yarim ikki oylar ilgari maxsus ko'chatxonalariga, har bitta kvadrat metr moydonga 20-25 grammdan ivitilgan hamda nishlatilgan holda. Bunda piyoz urug'lari yirik, kasallanmagan va zararlanmagan bo'lishi kerak.

Maysalar ko'chatxonada haroratini kunduzi 20 -25°C va kechasi 8-10°C qilib turish hamda yagona qilish va sug'orish yoli bilan parvarish qilinadi. Ko'chat 2-3 ta barg chiqarganda dalaga o'tkazishga tayyor bo'ladi. Piyoz ko'chatlari dalaga xuddi urug'dan o'stirilgandagidek o'sha muddatda va qalinlikda o'tqaziladi, keyin qondirib sug'oriladi, Sug'orish ilojlari kechqurin olib borish lozim, bunda o'simlik tez qaddini tiklaydi. Ko'chat qilingan piyozlar yuqori hosil beradi, ammo ko'p mehnat talab qilganidan, bu usul nisbatan kam qo'llaniladi. Piyoz o'stirish uchun

eng yaxshi yer maydonlari organik moddalarga boy, muhit ko'rsatkichi PH=6,4-7,9 bo'lgan tuproqlardir. Piyoz yengil, qumoq va begona o'tlardan toza bo'lgan bo'z tuproqlarda yaxshi hosil beradi. Og'ir soz tuproqli, botqoqlashgan va sho'rxak yerlarda piyozdan yuqori hosil olib bo'lmaydi. Agar tuproqning ko'rsatkichi PH=5 bo'lsa, bunday yerlarda piyoz yetishtirib bo'lmaydi. Agar PH=5-5,5 bo'lsa, u holda o'simlikka ohak solish kerak bo'ladi, yoki kuzda yer haydalganda ham tuproqqa ohak solish mumkin. Azotning juda ham ko'pligi piyoz yetilishini sekinlashtiradi va bunday piyozlar qishda yaxshi saqlanmaydi. Agar piyozni ko'chatlab ekiladigan yerda piyozning yuqorida tavsiya etilgan boshqa navlari ham ekilgan bo'lsa, u holda ularni piyoz ekilgan maydonlardan uzoqroq maydonlarga ekkan ma'qul bo'ladi, unga eng yomon o'tmishdosh o'simlik ko'katlar hisoblanadi.

Piyozni har doim bir xil joyga qaytadan ekish unda piyoz uchun zararli bo'lgan kasallik va zararkunandalarning ko'payib ketishiga olib keladi.

Bu esa piyozlarning sifati pasayishiga va hosildorlikning keskin kamayishiga olib keladi. Shuning uchun piyozni ko'chatlab ekilgan joyiga yana bir bor ekish uchun yengil tuproqlarda 3 yil, og'ir tuproqlarda esa 4-5 yil o'tishi kerak bo'ladi. Piyozdan keyin boshqa turdagi qishloq xo'jalik ekinlarini bemalol ekish mumkin bo'ladi. Agar yangi go'ng solingan maydonlarga yoki bedapoya o'rniga piyoz ekilsa, uni parvarishlash qiyinlashadi, chunki piyoz ko'chatlab ekilgan yerni begona o'tlar bosib ketadi – bunday piyozlarning sifati ham uncha yaxshi bo'lmaydi. Begona o'tlarga qarshi preparatlar sepilmasa, bunday maydonlarga ikkinchi yoki uchinchi yillar piyoz ekkan ma'qul bo'ladi.

Piyoz ekilgan maydonlarga esa faqat uch yildan keyingina yana bir marta piyoz ekish mumkin. Piyoz ko'chatlab erta bahorda yoki kech kuzda ekiladi. Ammo piyoz ekishdan oldin yer maydonidagi ekinlar qoldiqlarini yaxshilab tozalash, chirigan go'ng va mineral o'g'itlar solib, yerni chuqur haydash, ekishdan oldin yerni tekislash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ertagi bahorgi piyozni ko'chatlab ekiladigan maydonlarda begona o'tlar miqdorini kamaytirish uchun o'tmishdosh ekin qoldiqlari yig'ishtirib olingach, yer haydaladi, egatlar olinadi va

maydon yaxshilab sugʻoriladi. Shundan 9-11 kunlardan keyin maysalar unib chiqayotgan maydon chizellanib, begona oʻt maysalari yoʻqotiladi. Piyozni koʻchatlab ekishga tayyor holda keladi.

Piyozni koʻchatidan etishtirish boʻyicha olib borgan tajribalarimizda biz piyozning 5 ta jumladan Kaba - 132 , Karatol, Oq dur, Lione va Volf piyoz kabi navlari tanlab oldik va mart oyining oxirida yaʼni uchinchi oʻn kunligida 25-mart urugʻlari ekildi. Shuning bilan bir qatorda ekilgan piyoz navlarining unuvchanligi (foiz hisobida), unib chiqishi, birinchi, ikkinchi va uchinchi chin barg hosil qilishi hamda jami hosil qilgan barglar soni, oʻsimlik boʻyi va pishish darajasi kabi fenologik va biometrik koʻrsatkichlari oʻrganildi. Bu tajribamizda standart nav sifatida Kaba - 132 navi tanlab olindi va ushbu navga nisbatan qolgan navlari taqqoslani boʻrganildi. Standart Kaba -132 navida urugʻlaning toʻliq unib chiqishi 5-aprel kuzatilib, issiqxonada unuvchanligi 90,4 foizni tashkil etib, ushbu koʻrsatkich , Karatol navida 1- aprel, Lione navi 2-aprel Oqdur va Volf navida esa 3-aprel kuzatilib standart Kaba -132 naviga nisbatan 2-3 kun erta piyoz koʻchatlari paydo boʻldi. Birinchi chin barg hosil boʻlishi daslab va Karatol navida ekilgandan 1-aprel unib chiqqandan 12 kundan soʻng kuzatildi, Oqdur navida 15-aprel , Kaba-132 navida 19-aprel kuzatildi qolgan Lione va Volf kechroq chin barg chiqardi. Eng erta chin barg hosil boʻlishi Karatol namoyon boʻldi.

1-jadval

Navlar	Piyoz daslabki unib chiqishi (kun)	Piyoz toʻliq unib chiqishi (kun)	Piyoz koʻchatining tayyor boʻlishi vaqti (kun)
Kaba-132 (st)	10	23	30
Karatol	6	18	31
Oqdur	8	20	34

Lione	7	25	35
Volf	9	24	35
Qizil piyoz (mahalliy)	7	21	35

Ko`chatxonada piyoz navlarining o`sb rivojlanish ko`rsatkichlari

Ko`chatlarga tezroq tayor bo`lishi uchun 10l suvga 2gr ozot birikmasi berilib turdi ko`chatlar yaxshi rivojlandi va ko`chatini 30.04 ochiq dalaga o`tqazdi.

Oradan bir hafta o`tgandan ko`chatlar to`liq tutip ketgandan keyin mineral o`g`it berildi va tuproqning namligiga qarab sug`orib turildi.

O'simlik bo'yi navlar orasida taqqoslanganda eng baland bo'yli o'simliklar Karatol navida 58,1sm, Kaba o'simliklar esa 48,9 sm o'rtacha bo'yli o'simliklar 55,4 sm Oqdur navida eng past bo'yli Lione 44sm va Volfda 41sm kuzatiladi.

Barg hosil qilishi navlar aro taqqoslanganda eng ko'p barg hosil bo'lishi Karatol, Kaba-132 va Oqdur navlarining o'simliklarida qayd etildi. Lione va Volf navlari juda sust rivojlanish bo`ldi

Piyoz navlarini o'stirilganda o'simlikning pishishi navlar bo'yicha taqqoslanganda quyidagicha bo'ldi.

Navlar ichida eng erta pishish va hosilning etilishi Karatol navida 17- iyul va o`rata pishar Oqdur21-iyul standart Kaba - 132 navida 25-iyul Loine 2-avgust va Volf navida esa5-avgust kuzatildi. Bu yerda kech pishgan va hosildorlik jihatdan Lione va Volf navlari ancha past natijani ko`rsatdi.

Ochiq dalada piyoz ko`chatining morfobiologik ko`rsatkichlari

Navlar	Ochiq maydonga ekilganda to`liq tutib ketishi(kun)	Piyoz o`simligining bo`yi (sm) o`rtacha	Piyoz o`simligining barglar soni(dona)	Piyoz o`simligining barglar eni (sm)	Piyoz o`simligining piyozchasining og`irligi (1 dona)
Kaba-	5	48,9	8,7	2,3	159

132 (st)					
Karatol	5	58,1	8,4	2,3	164
Oq dur F ₁	5	55,4	8	2,3	170
Lione F ₁	6	44	7,4	2	112
Volf F ₁	6	41	7,4	2	110
Oq piyoz	5	55,6	9	2,3	165
Qizil piyoz	5	59	8,8	2,3	146

O'rganilgan tajribalarimiz natijalaridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki piyoz navlari o'simliklari etishtirilganda fenmarfalogik ko'rsatkichlari ekin naviga ham bog'liq ekan. Ko`chatlab yetishtirishning eng yaxshi tarafi mahsulot sochma usulda ekkandan ko`ra erta pishadi va yuqori hosil olish mumkin. Piyozni ko`chat usubida ekildanda begona o`tlar bo`lmaydi va suvni ham juda kam talab qiladi.

Undan ularning piyozboshlarga qarab tashqari bilamiz sochma usulda yerishtirilgan piyozlar bir xil bo`lmaydi. Masalan mayda, o`rta va yirik bo`limlarga qarab ajratamiz. Yetishtirilgan piyozlarning yiriklari bozarda tavarboblighi yuqori bo`ladi. Albatta bunday piyozlarga bozarda talab katta, eksportboblighi ham yuqori.

O`rta piyozlar bo`lsa mahaliy bozorlarga olib chiqsa bo`ladi, masalan maydalarga bozarda talab kam shu malumotlarni inobatga olib ko`chatlab ekilganda standart piyozlar olish mumkin bo`ladi.

Endi ko`chatlab yetishtirilgan piyozda hosil barchasi bir xilda va hosildorlik esa yuqori bo`ladi. Bozorga chiqarganda bir xil summada sotish mumkin bo`ladi. Bundan tashqari ko`chatlab yetishtirilgan piyoz sochma usulda tayyorlanayotgan piyozga nisbatan 25-30 kun erta tayyor bo`ladi. Ko`chatlab

yetishtirish piyozni ko`proq mehnat talab qiladi lekin ancha samaralidir.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari Xitoy, Yaponiya, AQSH va Rossiya mamlakati piyozni ko`chatlab yetishtiradi. Bu mamlakatlarda piyozni ko`chatlari maxsus ekish mashinalar orqali piyozni ekadilar. Bunday piyoz ekadigan texnikalar orqali katta maydonga ko`chatlab ekish imkoniyati paydo bo`ladi. Lekin bizning sharoitimizda katta maydonlarda ekish uchun katta mehnat talab qiladi chunki bizlarga hali piyozni ko`chatlab ekadigan mashinalar olib kelinmagandan. Bunday mashinalarni olib kelsak bizlarda ham katta maydonlarga ekish imkoni paydo bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A. "Himoyalangan yer sabzavotchiligi" T-2018
2. Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A. "Sabzavotchilik" Toshkent-2008
3. G.T.Erejepova, A.S.Abdigapbarov, N.N. Ismoilova "Sabzavotchilik" N., "Bilim" 2024. O`quv qo`lanma.